

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 8-oktyabr, № 209 (9380) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston – Rossiya Hukumatlararo komissiyasi va Hududlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlarida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo‘lib turgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o‘rinbosari Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimiz yetakchisi kuni kecha bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va Hududlar kengashining uchinchi yig‘ilishi natijador bo‘lganini olqishladi.

O‘zaro savdo hajmi barqaror o‘sib borayotgani, sanoat, energetika, metallurgiya, tinch atom va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalari ilgari surilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlashni yanada kengaytirish, sanoat zonalari doirasidagi qo‘shma loyihalarni jadallashtirishga qaratilgan o‘zaro muvofiqlashtirilgan choralarni ko‘rish hamda hududlar va biznes darajasidagi faol muloqotni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TURKMANISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan 7-oktyabr kuni amaliy tashrif bilan Turkmanistonga keldi.

Turkmanboshi shahri aeroportida davlatimiz rahbarini Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, O‘zbekiston yetakchisi 8-oktyabr kuni Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvida, 9-oktyabr kuni esa Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining navbatdagi sammitida ishtirok etadi.

Maslahat uchrashuvi kun tartibidan siyosiy-diplomatik hamkorlikni yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, energetika sohasidagi sheriklikni kengaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirish, madaniyat, ta’lim va ilm-fan sohalaridagi hamda yoshlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish masalalari o‘rin olgan.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar hamda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga oid ustuvor vazifalar yuzasidan fikr almashish ko‘zda tutilgan.

MDH Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishida Hamdo‘stlik doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik yakunlari sarhisob qilinib, uni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinadi. MDH tashkil etilganining 35 yilligini nishonlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Tadbirlar yakunida qo‘shma hujjatlar to‘plamini qabul qilish ko‘zda tutilgan.

Tashrif dasturiga muvofiq, qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish ham rejalashtirilgan.

O‘zA.

Avaza sammiti:

Markaziy Osiyo va MDH diplomatiyasining yangi bosqichi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan 7 – 9-oktyabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi. Kaspiy bo‘yidagi go‘zal “Avaza” milliy sayyohlik zonasi uch kun davomida mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi eng muhim muzokaralar markaziga aylanadi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi sammitida ishtirok etadi.

Turkmanistonning xushmanzara Avaza shahrida bo‘lib o‘tadigan sammit Markaziy Osiyoning besh davlati va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlikni mutlaqo yangi – “C6” formati doirasida chuqurlashtirish uchun tarixiy imkoniyatdir. Bu uchrashuv Kaspiy dengizi orqali chambarchas bog‘langan ikki strategik mintaqaning yagona geoiqtisodiy makonga aylanishi yo‘lidagi muhim qadam sanaladi.

Sakkizinchi Maslahat uchrashuvining kun tartibidan siyosiy va diplomatik muloqotni mustahkamlash, mintaqaning tashqi xatarlarga qarshi jamoaviy muzokaralar olib borish salohiyatini kuchaytirish, savdo-iqtisodiy aloqalar hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, energetika resurslarini yetkazib berish va “yashil” energetika loyihalarini muvofiqlashtirish kabi ustuvor masalalar o‘rin olgan. Shuningdek, transport-tranzit bog‘liqligi, “O‘rta yo‘lak” va “Sharq-G‘arb” yo‘nalishlarini rivojlantirish, bojxona va raqamli logistika tartiblarini yengillashtirish, iqlim o‘zgarishi, suv taqsimoti va ekologik monitoring bo‘yicha qo‘shma tashabbuslarni ilgari surish, madaniy-gumanitar aloqalar, ilm-fan, ta’lim masalalari ham muzokaralar mavzusi bo‘ladi.

Ozarbayjonning ushbu jarayonga faol qo‘shilishi Markaziy Osiyoning Janubiy Kavkaz, Turkiya va Yevropa bozorlari bilan aloqalarini mustahkamlab, mintaqaning global ta’minot zanjiridagi rolini keskin oshiradi. Zero, “C6” formati ishtirokchi davlatlarga tashqi kuchlar ta’siridan xoli tarzda ustuvor yo‘nalishlarni mustaqil belgilash imkonini beradi. Bu yerda suveren tenglik va o‘zaro manfaat tamoyillari asosiy mezondir.

➡2

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-oktyabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Rossiya yetakchisini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, do‘st Rossiya xalqiga esa ravnaq tiladi.

Vladimir Putinning zamonaviy Rossiyani barpo etishdagi tarixiy roli hamda O‘zbekiston – Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shayotgan shaxsiy hissasi qayd etildi.

Hamkorlik aloqalari barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanayotgani mamnuniyat bilan ta’kidlandi. O‘zaro savdo hajmi, sanoat, energetika va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda yetakchi korxonalar kooperatsiyasi ko‘lami izchil ortib bormoqda.

Kuni kecha Farg‘ona shahrida bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi hamda Hududlar kengashining uchinchi yig‘ilishi natijalari yuqori baholandi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar davom etmoqda: yaqinda mamlakatimizda “San’atlar olami” deb nomlangan Rossiya san’ati festivali muvaffaqiyatli o‘tkazildi, ayni kunlarda esa Moskva shahrida O‘zbekiston madaniyati kunlari bo‘lib o‘tdi.

Tomonlar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashib, bo‘lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR SAMARADORLIGI OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Ta’lim va ilm-fan vazirligi faoliyatini tashkil etish hamda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Yaqinda Prezidentimiz farmoni bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yagona Ta’lim va ilm-fan vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim, tarbiya va ilm-fanning yaxlit tizimini shakllantirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish ishlarini yangi bosqichga olib chiqishdir.

(Davomi 2-betda).

XALQARO PAXTA KUNI HAMDA DENGIZGA CHIQISH IMKONI BO‘LMAGAN RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA BAG‘ISHLANGAN XALQARO ANJUMANLAR ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli xalqaro anjuman ishtirokchilari!

Qadrli mehmonlar!

Dunyoning 30 dan ziyod mamlakatidan taniqli olim va ekspertlar, tadbirkorlar, shuningdek, ko‘plab xalqaro tashkilotlar vakillari ushbu forumlarda ishtirok etayotgani ularga bo‘lgan e’tibor va qiziqish katta ekanidan dalolat beradi.

Aziz do‘stlar!

O‘zbek dehqonlari paxtachilik bo‘yicha ulkan tajribaga ega. Keyingi yillarda amalga oshirayotgan tub islohotlarimiz tufayli bu soha yangi bosqichga ko‘tarildi. Izlanuvchan olimlarimiz tomonidan g‘o‘zaning 300 ga yaqin ertapishar navi yaratildi. Paxta ekish, parvarishlash, yig‘ib olish jarayoni to‘liq mexanizatsiyalashtirildi. Bugungi kunda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga dehqon-fermerlarimiz gektaridan 100 sentnergacha paxta hosili olmoqda.

Xalqaro paxta kuni O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga va mamlakatimizni ishonchli hamkor sifatida tanitishga xizmat qiladi, albatta.

Hozirgi vaqtda iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi muammolar bilan birga logistika zanjiridagi uzilishlar ham oziq-ovqat narxining oshishiga olib kelmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 645 milliondan ortiq odam ochlikdan aziyat chekmoqda. Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmasa, 2028-yilda bu raqam 1 milliardga yetishi mumkin.

Insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan bunday xatarlarni bartaraf etish ko‘p qirrali sheriklik va birgalikdagi sa’y-harakatlarga bog‘liq. Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun yuqori transport xarajatlari va tranzit mamlakatlardagi muammolar jiddiy g‘ov bo‘lib qolmoqda. Bunday qiyinchiliklar oziq-ovqat xavfsizligiga ham ta’sir ko‘rsatadi, albatta. Shu bois biz oziq-ovqat mahsulotlari logistikasi va savdosining to‘liq erkinligi hamda oziq-ovqat yetkazishni tartibga soluvchi qoidalarni soddalashtirish tarafdorimiz.

Biz 2030-yilgacha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni 2 barobar, eksport va qo‘shilgan qiymatni 3 karra oshirish bo‘yicha katta marra olganmiz. Bu maqsadlarga erishish uchun xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish niyatidamiz.

Markaziy Osiyodan boshlab, dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar va tranzit hamkorlarni bog‘laydigan oziq-ovqat hamkorligi dasturini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari va xususiy investorlarni oziq-ovqatni qayta ishlash, sovitkichli saqlash va tashish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga chaqiramiz.

Qadrli mehmonlar!

Ushbu forum ishtirokchilar tomonidan bildirilgan yangi tashabbus va strategiyalarni ro‘yobga chiqarish, birgalikdagi sa’y-harakatlarni kuchaytirish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi deb ishonaman.

Anjumanlar faoliyatiga va barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

MUZAFFAR AVLOD

Yoshlarning yutuqlari O‘zbekistondagi o‘zgarishlar ko‘lamini aks ettiradi

O‘zbekistondagi yangilanishlar shiddati jahon ahlining diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. Mamlakatda ulg‘ayayotgan yangi avlodning xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlari esa yanada kattaroq taassurot uyg‘otadi. Ta’lim va sportda Yangi O‘zbekiston yoshlarini dunyo tan olmoqda. Ular o‘z bilimi, iste’dodi va mehnati tufayli mamlakatimizning salohiyatini shunchalik yorqin namoyish etmoqdalarki, buni bir necha yil avval hatto tasavvur qilish ham qiyin edi.

Yaqindagina bo‘lib o‘tgan voqealar – shaxmat olimpiadasi va Osiyo o‘yinlaridagi zafarlar ham shundan darak beradi. Bizning yosh vatandoshlarimiz jahon miqyosida raqobat kuchayayotgan va shunchaki tabiat ato etgan iste’dodning o‘zi muvaffaqiyat uchun yetarli bo‘lmagan maydonlarda o‘zlarini ko‘rsatishdi. Buning uchun ko‘p yillar davomida shug‘ullanish, ustozlardan o‘rganish va maslahat olish, yuqori talablarga javob bera olish, eng kuchlilar qatorida bo‘lishga astoydil intilish darkor. Shunday ekan, yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati ortida oilasi, maktabi, murabbiysi, universiteti va davlatimizda yo‘lga qo‘yilgan muntazam tayyorgarlik tizimi turibdi.

Nigoh

Yoshlarimiz – dunyo elitasi qatorida

Bu, ayniqsa, yaqinda Samarqandda bo‘lib o‘tgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Angliyalik grossmeyster va professional shaxmat sharhlovchisi Devid Xauell musobaqaning eng hal qiluvchi bahslaridan birida Nodirbek Abdusattorovning jahon eks-chempioni Din Lijen bilan o‘ynagan partiyasini kuzatar ekan, ijtimoiy tarmoqlarda shunday post e’lon qildi: “Agar qachondir o‘g‘il farzand ko‘rsam, uning ismini Nodirbek qo‘yishim kerak bo‘ladi. Bu esa uning oliy darajadagi shaxmatchi bo‘lishiga kafolatdir”.

Ushbu so‘zlarning ahamiyati ularni aytgan muallifning kimligini hisobga olsak, yanada oydinlashadi. Devid Xauell 16 yoshida grossmeyster bo‘lgan. O‘shanda, 2007-yili bu unvonni olgan eng yosh britaniyalik edi. Uning eng yuqori reytingi 2712 punktga yetgan. Uch marta Buyuk Britaniya chempioni bo‘lgan va eng yirik jamoaviy turnirlarda terma jamoa a’zosi sifatida qatnashgan. So‘nggi yillarda Xauell shaxmat eksperti va sharhlovchisi bo‘lib faoliyat yuritmoqda. Ya’ni u har kuni shaxmat ustalarining o‘yinlarini kuzatadi va millionlab qiziquvchilar uchun o‘yinni professional tarzda sharhlab beradi. Shunday ekan, uning bahosi Nodirbekni juda yuqori darajadagi raqib bilan murakkab partiyani o‘ynashga qodir bo‘lgan shaxmatchi sifatida e’tirof etishidir.

➡3

TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR SAMARADORLIGI OSHIRILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlar va ilmiy faoliyat o‘rtasida uzviylikni ta’minlash, tizimni yagona yondashuv asosida boshqarish vazifasi qo‘yilgan. Bunda ta’lim mazmunini zamon va mehnat bozori talablariga moslashtirish, raqobatni rivojlantirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda sohaning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Taqdimotda yangi vazirlik faoliyatini joylardagi haqiqiy holatga tayanib tashkil etish, takrorlanuvchi vazifalarni qisqartirish va hududiy bo‘g‘inlar mas’uliyatini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Boshqaruvni raqamlashtirish va tahliliy salohiyatni oshirish qarorlarni ishonchli ma’lumotlar asosida qabul qilishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Maktabgacha ta’limda bolani har tomonlama rivojlantirish, dastur va metodikalarni yangilash hamda tarbiyachilar malakasini oshirishga e’tibor qaratildi. Shuningdek, bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini erta aniqlash, ta’lim muassasalarida zamonaviy sharoitlar yaratish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Maktab ta’limida darsliklarni yangilash, o‘quvchilarning bilim va amaliy ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish hamda ularni baholash tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi. Pedagoglarga metodik yordam ko‘rsatishda sun’iy intellektdan foydalanish, ayrim maktablarda ingliz tilida ta’lim berish tajribasini o‘tkazish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish taklif etildi.

Kasbiy ta’lim bo‘yicha yoshlarning qiziqishlarini erta aniqlash, texnikumlar dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish va ularning moddiy bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyat berildi. Korxonalar bilan hamkorlikda dual ta’limni kengaytirish, xalqaro dasturlar va zamonaviy o‘quv materiallarini joriy etish masalalari ko‘rib chiqildi.

Oliy ta’limda universitetlar mustaqilligini kengaytirish, boshqaruv sifatini va rahbarlarning natija uchun mas’uliyatini oshirish taklif qilindi. Shu bilan birga yetakchi xorijiy oliygohlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, ta’limni ishlab chiqarish bilan yaqinlashtirish va talabalarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ilm-fan sohasida ilmiy klasterlarni rivojlantirish, universitetlar, laboratoriyalar va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga e’tibor qaratildi. Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish hamda ular asosida yangi mahsulotlar va korxonalar yaratish bo‘yicha takliflar taqdim etildi.

Taqdimot davomida Prezidentimiz ta’limning bog‘chadan oliygohgacha bo‘lgan barcha bosqichlari yagona vertikal sifatida ishlashi, ayniqsa, maktab va universitet o‘rtasidagi uzviylik mustahkamlanishi zarurligini ta’kidladi. Har bir bosqichda ta’lim sifatiga e’tiborni kuchaytirish, bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va bu qadriyatlarga butun ta’lim jarayonida va ilmiy faoliyatda tayanish muhimligi qayd etildi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga joriy etishga alohida e’tibor qaratilib, rektorlar o‘z universitetining yaqin va o‘rta muddatli istiqbolda qanday rivojlanishi haqida aniq tasavvur hamda rejaga ega bo‘lishi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Mutasaddilarga takliflarni puxta ishlab chiqish topshirildi.

O‘zA.

INKLYUZIVLIK, ISHONCH VA IMKONIYATLAR

Parlamentlararo Ittifoqning 153-assambleyasi doirasida o‘tkazilgan umumiy debatlar inklyuzivlik, ishonch va barcha uchun imkoniyatlar orqali samarali boshqaruvni mustahkamlash va jamiyatlar imkoniyatlarini kengaytirish mavzusiga bag‘ishlandi.

Xalqaro anjuman



Unda davlat institutlariga ishonchni mustahkamlash, fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, teng imkoniyatlarni ta’minlash hamda parlamentlarning aholi hayotida aniq va ijobiy o‘zgarishlarga erishishdagi rolini kuchaytirish masalalari muhokama markazida bo‘ldi.

O‘zbekiston parlamenti delegatsiyasi rahbari, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva o‘z chiqishida ijtimoiy davlat tamoyillarini amalga oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy siyosatning huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar haqida qisqacha ma’lumot berdi. Ishtirokchilar qonunchilikni takomillashtirish va davlat siyosatining ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasini katta qiziqish bilan tingladi.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston ilgari surgan tashabbuslar parlamentlarning qonun ijodkorligi va nazorat funksiyalarini aholi ehtiyojlariga yanada yaqinlashtirishga qaratilgan. Xususan, qonun loyihalarini tayyorlashda jamoatchilik va mahalliy vakillik organlari fikrini to‘laligicha inobatga olish, davlat dasturlari hamda byudjetlarni teng imkoniyatlar nuqtayi nazaridan baholash, parlament nazoratini esa qabul qilingan qarorlarning aholi hayotidagi amaliy natijalariga yo‘naltirish takliflari bildirildi.

Debatlarda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi qabul qilgan “Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyaga ham alohida e’tibor qaratildi. Mazkur hujjat parlamentlarning ijtimoiy rivojlanish, teng imkoniyatlar va inson farovonligini ta’minlashdagi mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilganiga urg‘u berilib, uni amalga oshirishda parlamentlararo hamkorlikni yanada faollashtirish muhimligi qayd etildi.

PARLAMENTLARARO MUNOSABATLARNI FAOLLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Tanzaniyaning Arusha shahrida bo‘lib o‘tayotgan Parlamentlararo Ittifoqning 153-assambleyasi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Birlashgan Tanzaniya Respublikasi Milliy assambleyasi Spikeri Mussa Azzan Zungu bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Uchrashuvda ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy va parlamentlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yish istiqbollari, savdo-iqtisodiy hamda investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish istiqbollari haqida so‘z yuritildi.

Milliy assambleya Spikeri O‘zbekiston va Tanzaniya o‘rtasida diplomatik munosabatlarni o‘rnatish to‘g‘risidagi Qo‘shma kommyunike loyihasini qabul qilish jarayonini jadallashtirishda faol ishtirok etishga tayyorligini ta’kidladi. Mazkur hujjatning qabul qilinishi parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirish uchun huquqiy-siyosiy zamin yaratishi aytildi.

Muloqot chog‘ida ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi aloqalarni izchil rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Parlamentlararo muloqotni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston va Tanzaniya parlamentlarida hamkorlik bo‘yicha guruhlarni tuzish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Shuningdek, Senat Raisi Belarus Milliy Majlisi Respublika Kengashining Xalqaro ishlar va milliy xavfsizlik bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sergey Aleynik bilan ham uchrashdi.

Suhbat chog‘ida O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollariga e’tibor qaratildi.

Xususan, parlamentlararo muloqotni muntazam davom ettirish, qonun ijodkorligi yo‘nalishida tajriba almashish, parlament qo‘mitalari va komissiyalari o‘rtasidagi aloqalarni yanada faollashtirish, shuningdek, xalqaro parlament tuzilmalari doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O‘z navbatida, Sergey Aleynik to‘rtinchi O‘zbekiston – Belarus parlamentlararo forumining yuqori saviyada tashkil etilgani va o‘tkazilgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Eslatib o‘tamiz, 29-30-sentyabr kunlari Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan forumda ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, o‘zaro tajriba almashish va amaliy muloqotni kengaytirishga qaratilgan qator masalalar muhokama qilingan edi.

Belarus parlamenti a’zosi erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, shu jumladan, 2027-yilda o‘z mamlakatida o‘tkazilishi rejalashtirilgan navbatdagi O‘zbekiston – Belarus parlamentlararo forumiga tayyorgarlik ishlari boshlanganini ta’kidlab o‘tdi.

“Xalq so‘zi”.

Davra suhbati

QONUN LOYIHASI MUHOKAMASI

Toshkent shahrida “Kapital bozori to‘g‘risida”gi yangi qonun loyihasi va O‘zbekiston milliy kapital bozorini rivojlantirish istiqbollariga bag‘ishlangan xalqaro davra suhbati bo‘lib o‘tdi.

Unda Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi Erkin Gadoyev ishtirok etib, kapital bozorini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, investorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda milliy kapital bozorining xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyasini kuchaytirish masalalari yuzasidan fikr bildirdi.

Qayd etilganidek, qonun loyihasi kapital bozorida zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy qilish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, professional ishtirokchilar faoliyatini takomillashtirish va investorlar uchun qo‘shimcha huquqiy kafolatlar yaratishga qaratilgan.

Shuningdek, davra suhbatida xalqaro tajriba asosida kapital bozorini rivojlantirish, jumladan, obligatsiyalar, sukuk, derivativlar, IPO va boshqa zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilindi.

“Xalq so‘zi”.

Aks sado

UMUMIY MANFAATLARGA ASOSLANGAN HAMKORLIK

Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvi mintaqaviy hamkorlikni yangi mazmun bilan boyitayotgan muhim siyosiy maydon sifatida ahamiyatlidir. Uchrashuv kun tartibida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiyaviy hamkorlik, elektron tijorat, transport-logistika va yuqori texnologiyali infratuzilmani rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarning qamrab olingani bejiz emas.



Chunki bugun transport yo‘laklari, raqamli iqtisodiyot va investitsiya makoniga alohida davlatlar doirasida emas, balki mintaqaviy hamkorlik nuqtayi nazaridan qaralishi kerak. Shu ma’noda, mazkur hamkorlik Markaziy Osiyoning iqtisodiy salohiyatini birlashtirish va uning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Bu borada transport-logistika yo‘nalishi ham strategik ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo va Ozarbayjonning geografik joylashuvi bizga Sharq va G‘arb o‘rtasida muhim iqtisodiy bo‘g‘in bo‘lish uchun katta sharoit tug‘diradi. Bu imkoniyatni natijaga aylantirish uchun zamonaviy transport koridorlari bilan bir qatorda raqamli logistika, elektron hujjat aylanmasi, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va yagona standartlarni joriy etish ham kerak.

Bugun Markaziy Osiyodagi jarayonlarning eng muhim jihati mintaqaning oddiy geografik hududdan, o‘z iqtisodiy manfaatlarini birgalikda ilgari sura oladigan geoiqtisodiy makonga aylanib borayotganidir. Markaziy Osiyo va Ozarbayjon o‘rtasidagi muloqotni ham shu nuqtayi nazardan baholash kerak. Chunki bu yerda gap faqat savdo hajmini oshirish yoki yangi transport yo‘laklarini ochish haqida emas. Gap Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo oqimlarida mintaqaning rolini kuchaytirish, investitsiya va texnologiyalarni jalb qilish uchun yagona iqtisodiy muhit yaratish haqida ketmoqda.

Ayniqsa, Transkaspiy yo‘lagi, raqamli logistika va elektron savdoning rivojlanishi geografiyani iqtisodiy ustunlikka aylantirish uchun temir yo‘l yoki avtomobil yo‘lining o‘zi kifoya emas. Buning uchun bojxona tizimi, elektron hujjat aylanmasi, logistika standartlari va chegara infratuzilmasi ham o‘zaro uyg‘unlashishi lozim.

Bu jarayonda O‘zbekistonning pozitsiyasi tobora kuchaymoqda. Mamlakatimiz bugun mintaqadagi o‘zgarishlarni kuzatibgina qolmay, ularning kun tartibini shakllantirishda faol ishtirok etyapti. Eng muhimi, endi mintaqaviy hamkorlik qancha investitsiya jalb etilib, qancha ish o‘rni yaratilgani, transport xarajatlari qanchaga qisqarib, aholi hayotida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘layotgani bilan o‘lchanmoqda.

Demak, agar siyosiy ishonch iqtisodiy manfaat, geografik joylashuv esa zamonaviy infratuzilma bilan birlashtirilsa, Markaziy Osiyo kelgusi yillarda jahon savdo yo‘llarining oddiy tranzit hududi emas, mustaqil iqtisodiy qiymat yaratadigan muhim geoiqtisodiy markazga aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvi ham, MDH Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishi ham bir umumiy g‘oya – tinchlikni iqtisodiy taraqqiyot, siyosiy ishonchni amaliy hamkorlik asosida mustahkamlash g‘oyasini ilgari surishi bilan ahamiyatli.

Eng muhimi, mintaqamiz o‘z taraqqiyot kun tartibini o‘zi belgilay oladigan, tashqi iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga faqat moslashibgina qolmay, ularga ta’sir ko‘rsata oladigan kuchli geoiqtisodiy makonga aylanishi kerak.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi a’zosi.

Avaza sammiti:

Markaziy Osiyo va MDH diplomatiyasining yangi bosqichi

1

Davlatlar rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi shuni yaqqol namoyish etmoqdaki, ilgari tarqoq bo‘lgan Markaziy Osiyo bugungi kunda taraqqiyotning umumiy maqsadlari yo‘lida birlashmoqda. Bu shunchaki geografik qo‘shnichilik bilan cheklanmaydi, aksincha, murakkab xalqaro voqelikka berilgan yagona, qat’iy va oqilona javobdir. Zero, yakka holda global inqirozlar, logistika zanjirlarining uzilishi va iqtisodiy turbulentlikka qarshi turish imkonsiz.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli mintaqada mutlaq ishonch muhiti shakllandi. Tarqoqlik ortda qoldi – endilikda yagona bozor, mushtarak xavfsizlik konsepsiyasi va o‘zaro to‘ldiruvchi iqtisodiy integratsiya modeli amal qilmoqda.

Shu o‘rinda Maslahat uchrashuvlari formatidagi eng muhim geosiyosiy yangilik – bu Ozarbayjonning ushbu jarayonlarga to‘laqonli qo‘shilishi bo‘lganini aytib o‘tish lozim. 2025-yil 16-noyabr kuni Toshkentda o‘tgan yettinchi Maslahat uchrashuvi ushbu jarayonning muhim bosqichi bo‘lib, uning yakunlariga ko‘ra Ozarbayjon ushbu formatga to‘la huquqli ishtirokchi bo‘lib qo‘shildi. Bu o‘zaro hamkorligimizni sifat jihatdan yangi, makromintaqaviy darajaga olib chiqdi. Ozarbayjon Markaziy Osiyo uchun Kaspiy orqali Yevropa va Janubiy Kavkazga ochiladigan asosiy logistik darvoza hisoblanadi. Mintaqa davlatlari uchun Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va Afg‘onistonni birlashtiruvchi yagona



taraqqiyot makonini shakllantirish borasida tarixiy imkoniyat ochilmoqda. Ularning yagona transport-energetika va savdo zanjiriga birlashishi Yevroosiyoning qoq yuragida barqaror rivojlanish, o‘zaro bog‘liqlik va yaxshi qo‘shnichilik uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Zamonaviy dunyoda ustunlik faqat xomashyo yoki geografik joylashuv bilan emas, balki texnologiya va “aqlli” yechimlar bilan o‘lchanadi. Maslahat uchrashuvlarida mintaqaning kelajakdagi texnologik qiyofasi aniq belgilab berilyapti. Birinchidan, Markaziy Osiyo ta’lim, ilm-fan va katta ma’lumotlar (Big Data) borasida innovatsiyalar bo‘yicha raqobatbardosh xabga aylanishi kutilmoqda. Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt va IT-infratuzilmani birgalikda rivojlantirish orqali mintaqa yoshlarining salohiyatini ro‘yobga chiqarish zarur. Ikkinchidan, ekologik barqarorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish har doim mintaqa kun tartibining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Transport yo‘laklarini yagona tarmoq sifatida rivojlantirish Avaza sammitining eng muhim amaliy natijasi bo‘lishi kutilmoqda. “O‘rta yo‘lak” va qurilishi boshlangan Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li bir-birini inkor qiluvchi emas, balki to‘ldiruvchi loyihalardir. Bojxona tartiblarini soddalashtirish, raqamli hujjat aylanmasini (e-TIR, e-CMR) joriy etish va Kaspiy orqali parom qatnovlarini muvofiqlashtirish zarur. Bu biznes uchun yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish va xarajatlarni kamaytirish demakdir.

Sammitlarda imzolanayotgan qarorlar qog‘ozda qolib ketmasligi uchun ularni ijro etuvchi mustahkam tizim kerak. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” konsepsiyasi, jumladan, kotibiyat va milliy koordinatorlar institutini joriy qilish tashabbusi hamkorlikni tizimli izga soladi. Bu format “Xitoy – Markaziy Osiyo” mexanizmidagi muvaffaqiyatli tajribani mintaqaning ichki hamkorligiga ko‘chirish imkonini beradi.

Transport yo‘laklari faqat yuklarni tashish uchun emas, balki ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish uchun asqatishi kerak. Sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi va turizm sohalaridagi hamkorlik iqtisodiy samaraning nafaqat yirik markazlarda, balki chekka hududlarda ham sezilishiga imkon beradi. Logistika markazlari atrofida kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qiladi.

Avaza sammiti Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasidagi hamkorlikning “amaliy imtihoni” bo‘ladi. Muvaffaqiyat faqat sammit kunidagi kelishuvlarga emas, balki yil davomida idoralararo izchil ishlashga, bojxona va raqamlashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ning bajarilishiga bog‘liq. Agar “C6” davlatlari Kaspiyni do‘stlik va iqtisodiy imkoniyatlar ko‘prigiga aylantira olsalar, bu nafaqat mintaqa, balki butun Yevroosiyo uchun yangi barqarorlik va taraqqiyot markazini yaratadi. Avaza – ana shu ulug‘vor yo‘lning muhim tayanch nuqtasi.

Turkmanistonning 2026-yildagi Hamdo‘stlikka raisligi doirasida o‘tkazilayotgan MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisi tashkilot tashkil etilganining 35 yilligini nishonlash fonida bo‘lib o‘tadi. Unda Hamdo‘stlik makonida ko‘p tomonlama sheriklikning o‘tgan davrdagi sarhisobi ko‘rib chiqiladi hamda savdo, erkin iqtisodiy aloqalar, xavfsizlikni ta’minlash va transport koridorlaridan samarali foydalanish istiqbollari belgilab olinadi.

Agar Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsiyaviy jarayonlar so‘nggi yillarda yangi nafas olgan bo‘lsa, O‘zbekistonning MDH doirasidagi faoliyati ham 2017-yildan buyon tubdan o‘zgarib, tizimli va amaliy tus oldi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Hamdo‘stlikning barcha ustav idoralari – davlat va hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari, chegara qo‘shinlari qo‘mondonlari, iqtisodiy kengashlar va parlamentlararo assambleyalar ishida eng faol ishtirokchilardan biri. Prezidentimizning MDH sammitlaridagi ishtiroki doirasida qabul qilingan hujjatlar ijrosini ta’minlash maqsadida maxsus “yo‘l xaritalari” amalga oshirilmoqda. Natijada O‘zbekiston sohaviy hamkorlik bo‘yicha 24 ta idoraga qo‘shildi va Hamdo‘stlikning 86 ta organidan milliy manfaatlarga to‘la javob beradigan 66 ta tuzilma faoliyatida qatnashmoqda. O‘zbekiston MDH ishida doimo faol. Mamlakatning 2020-yildagi pandemiya sharoitida tashkilotga muvaffaqiyatli raisligi buning yaqqol isbotidir. O‘shanda O‘zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan BMT Bosh Assambleyasining “BMT va MDH o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangan edi.

Joriy yilda Turkmaniston MDHga raislik qilmoqda, O‘zbekiston esa Hamdo‘stlikning kelajakdagi tadbirlari va strategik vazifalarini amalga oshirishda yaqin ko‘makchi va faol hamkor sifatida qatnashayotgani diqqatga sazovor. 9-oktyabr kuni bo‘lib o‘tadigan MDH sammitida esa tashkilot tuzilganining 35 yilligini nishonlash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Avaza uchrashuvlarining eng muhim siyosiy-falsafiy jihati shundaki, ular mintaqaviy format va keng ko‘lamli MDH maydoni o‘rtasida hech qanday raqobat yo‘qligini, aksincha, ular bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi ko‘p bosqichli tizim ekanini yaqqol isbotlamoqda.

Ayni paytda mamlakatimiz MDH va uning sohaviy tuzilmalari orqali Yevroosiyo makonidagi savdo-iqtisodiy, transport, xavfsizlik, innovatsion va gumanitar aloqalarni jadal rivojlantirmoqda. MDHning navbatdagi sammiti esa sanoat kooperatsiyasi, raqamli texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va madaniy-gumanitar almashinuvlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Uchrashuvlar yakunida qabul qilinadigan qo‘shma hujjatlar to‘plami erishilgan kelishuvlarga huquqiy asos yaratadi.

Avazada o‘tkaziladigan oliy darajadagi tadbirlarning ahamiyati faqatgina sammitlarning taqvimiy ketma-ketligi bilan cheklanib qolmaydi. Bu mintaqa davlatlarining eski, tarqoq ikki tomonlama munosabatlar bosqichidan voz kechib, Markaziy Osiyoning yaxlit mintaqaviy formati hamda MDH doirasidagi ko‘p tomonlama sheriklik bir-biri bilan chambarchas bog‘langan mukammal hamkorlik tizimiga o‘tganining yorqin amaliy ifodasidir.

Tashrif dasturi juda tig‘iz va samarali bo‘lishi kutilmoqda. Sammitlar yakunida ishtirokchi davlatlarning manfaatlarini ifoda etuvchi muhim qo‘shma hujjatlar to‘plami imzolanishi rejalashtirilgan. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashrif doirasida qardosh va hamkor davlatlar rahbarlari bilan ikki tomonlama qator uchrashuvlar o‘tkazishi ko‘zda tutilgan. Ushbu muzokaralar O‘zbekistonning strategik sheriklari bilan amaliy loyihalarini yanada tezlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston yetakchisining Turkmanistonga amaliy tashrifi nafaqat yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga, balki butun Markaziy Osiyo, Kaspiy havzasi va MDH makonida tinchlik, barqarorlik va iqtisodiy ravnaqni ta’minlashga ko‘maklashuvchi tarixiy qadam bo‘ladi. Avaza muloqotlari mintaqaviy jipslik va amaliy diplomatiyaning navbatdagi muvaffaqiyatli namoyishiga aylanishi, shubhasiz.

Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Davlat kadastrlari palatasi ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizning umumiy yer maydoni 44,9 mln. gektarni tashkil etmoqda.

MUZAFFAR AVLOD

Yoshlarning yutuqlari O‘zbekistondagi o‘zgarishlar ko‘lamini aks ettiradi



1 Buning ustiga, o‘sha kuni O‘zbekiston birdaniga ikkita Nodirbekning qobiliyatini namoyish qildi. Nodirbek Abdusattorov Din Lijen ustidan g‘alaba qozongan bo‘lsa, Nodirbek Yoqubboyev bizning jamoaga muhim ochko olib berdi. Natijada O‘zbekiston terma jamoasi eng kuchli jamoalardan birini 3:1 hisobida mag‘lub etdi.

Bu g‘alaba – tarixiy ishtirokning bir epizodi, xolos. O‘z “uyimizda” o‘tgan olimpiadada 200 dan ziyod davlatlardan kelgan 2 000 ga yaqin shaxmatchilar qatnashdi va O‘zbekiston terma jamoasi ikkinchi marta Olimpiya chempioni bo‘ldi. Musobaqada juda kuchli grossmeysterlar va amaldagi jahon chempioni qatnashdi. Samarqandda bu musobaqalarni 60 mingdan ziyod mahalliy va xorijiy mehmonlar bevosita kuzatib bordi, viloyatlarda esa yuz minglab vatandoshlarimiz ko‘rishdi. Millionlab muxlislar olimpiadani televideniye va internet orqali tomosha qildi.

Britaniyaning “The Guardian” nashrida O‘zbekistonning Samarqanddagi olimpiadada erishgan g‘alabasi “triumf” deb ataldi. OAVda xabar berishlaricha, musobaqa davomida O‘zbekiston terma jamoasi Hindiston, Xitoy va AQShdan kelgan amaldagi Olimpiya chempionlarini ham mag‘lub etdi. Bunday natija turnir ko‘lamining nihoyatda kengligi sharoitida, ayniqsa, ahamiyatlidir. Negaki, ochiq birinchilikda 206 ta jamoa qatnashdi. O‘zbekiston jamoasi Hindiston, Germaniya, AQSh, Xitoy va boshqa davlatlarning terma jamoalaridan oldinda bo‘ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev chempionlarni qabul qilar ekan, ushbu g‘alabaning ahamiyatini aniq ifodaladi. “Yangi O‘zbekistonda qanday buyuk shaxmat maktabi, shaxmatchilar avlodi shakllanganiga butun dunyo tan berdi”, deya ta’kidladi O‘zbekiston yetakchisi.

Darhaqiqat, bitta iste’dodli sportchi har qaysi mamlakatda bo‘lishi mumkin va bunga jahon sporti tarixida misollar ko‘p. Lekin bitta mashhur shaxmatchidan so‘ng boshqa kuchli o‘yinchilar chiqishi, keyin esa terma jamoalarning muvaffaqiyatlari, xalqaro maydondagi ketma-ket g‘alabalar, yuqori toifali shaxmat ustalarining shakllanishini alohida shaxslarning iste’dodi, deya izohlab bo‘lmaydi. Bunday natija ortida maktab turibdi, uning ortida esa butun bir tayyorgarlik tizimi bor. Va bu tizim o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi.

2018-yildayoq maktablarda shaxmat o‘rgatish joriy etilgan edi. Trenerlar tayyorlandi, shaxmat klublari rivojlana boshladi. Keyingi o‘n yilda 17 nafar o‘zbek shaxmatchisi xalqaro grossmeyster unvonini oldi, ulardan 5 nafari qizlar.

Keyingi vazifa O‘zbekistonni shaxmat bo‘yicha dunyo markaziga aylantirishdan iborat bo‘ldi. Har bir viloyat, tuman va mahallada iste’dodli bolalarni aniqlash, ularga kuchli murabbiylar tayinlash va xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratish yo‘lga qo‘yildi. Ayollar shaxmati va parashaxmatni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Samarqand, Xorazm va Farg‘onada Toshkent xalqaro shaxmat akademiyasining filiallarini ochish va oliy toifali trenerlar tayyorlashni takomillashtirish ko‘zda tutilmoqda. “UzbekistanGrandChess” milliy brendi ostida o‘tadigan xalqaro musobaqalar muntazamlik kasb etishi lozim. Shuningdek, Yangi Toshkentda zamonaviy shaxmat saroyi qurish taklifi ham bildirildi.

Mamlakatimizda shunday muhit yaratilishi kerakki, unda iste’dodli bola birinchi mashg‘ulotdan boshlab, to xalqaro maydonlargacha bo‘lgan yo‘lni adashmay bosib o‘ta olsin.

“Euronews” reportajida qayd etilganidek, O‘zbekistonning ishtiroki 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining eng asosiy voqealaridan biri bo‘lib qoldi. Nashr .vakillari, ayniqsa, Nodirbek Abdusattorovga alohida e’tibor qaratdi. U birinchi taxtada raqib jamoalarning eng kuchli shaxmatchilariga qarshi o‘ynab, birorta partiyada yutqazmadi va alohida individual oltin medalni qo‘lga kiritdi. Yevropa OAVda grossmeysterning quyidagi so‘zlari iqtibos sifatida keltirildi: “O‘ylashimcha, endi biz O‘zbekiston uchun shaxmat olamida o‘ziga teng keladigani yo‘q deya olamiz”.

Shu kabi yutuqlarga vatandoshlarimiz faqatgina shaxmat taxtasi ustida erishayotganlari yo‘q. Yaqinda O‘zbekiston sport delegatsiyasi Yaponiyada bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida ishtirok etdi. 45 davlatdan kelgan 11 mingga yaqin sportchilar qatnashgan ushbu musobaqalarda yurtdoshlarimiz 21 ta oltin, 25 ta kumush va 24 ta bronza medali – jami 70 ta mukofotga sazovor bo‘ldi va umumjamoa hisobida 5-o‘rinni egalladi.

Bizdan oldinda – Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Hindiston. Bu davlatlar aholisi ko‘p bo‘lib, kuchli sport maktablari va sportchilar tayyorlash uchun katta imkoniyatlarga ega. O‘zbekistonning natijasi – Markaziy Osiyo mamlakatlari va Islom hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida eng yaxshi ko‘rsatkichdir. Medallar soniga ko‘ra, mamlakatimiz sport an’analari boy bo‘lgan ko‘pgina davlatlarni ham ortda qoldirdi.

Albatta, har qaysi medal ortida shaxsning hayot yo‘li turadi. Har bir chempionning o‘z shaxsiy tarixi, murabbiylari, qarindosh-urug‘lari, mashg‘ulotlar davomiyligi, fe’l-atvori bor. Lekin har xil sport turlarida muvaffaqiyatning takrorlanishi muhit o‘zgarayotganini ko‘rsatadi.

Sportdagi yutuqlarni boshqa o‘zgarishlardan alohida ko‘rib chiqish noto‘g‘ri. Shaxmat, Olimpiya medallari, xalqaro ilmiy musobaqalar – bularni bitta jihat bog‘lab turadi. Ya’ni, bu sohalarda natija ancha keyin, ishlar boshlanganidan so‘ng yillar o‘tgach, namoyon bo‘ladi. Eng birinchi, bolalarcha qiziqish bilan xalqaro maydondagi g‘alaba o‘rtasida uzundan-uzun yo‘l bor. Aynan shuning uchun ham yoshlarning yutuqlari haqida so‘z ketsa, maktabni eslamay iloj yo‘q.

O‘n yillik yo‘l

Jahon tarixida aynan ta’limga tayanish millatning shiddatli taraqqiyotidagi bosh omilga aylanganiga oid misollar talaygina. Bunday holat jahon miqyosida texnologik va sanoat taraqqiyotida yetakchi davlatlardan biri bo‘lgan Janubiy Koreyada ham kuzatilgan. BMTning sobiq Bosh kotibi Pan Gi Mun o‘z vatanining bosib o‘tgan yo‘lini eslar ekan: “Bizning sirimiz – ta’limda” degan edi. U o‘z chiqishlarida mamlakat taraqqiyotini ta’limga kiritilgan investitsiyalar va malakali ishchi kuchini shakllantirish bilan bog‘lagani ko‘pchilikka ma’lum.

Bugun O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar natijalari haqida gap ketganda, dastlab ish nimadan boshlanganini esga olish lozim. Bundan o‘n yil oldin maktab o‘quvchisi qishloq xo‘jaligi ishlari uchun oylab darslarni qoldirishi mumkin edi. Ko‘plab bitiruvchilar uchun oliy o‘quv yurtiga kirish shunchalik qiyin vazifa ediki, attestat olishdan ancha oldin o‘qishga intilish so‘nib borardi. O‘qituvchi kasbi esa jamiyatda obro‘sini yo‘qotdi, vaholanki, u haqli ravishda mamlakatning ilg‘or qatlami bo‘lishi kerak edi.

O‘zimizga savol beraylik. O‘tgan o‘n yil ichida nimalar o‘zgardi? Maktab o‘ziga xos bo‘lmagan majburiyatlardan ozod etildi, pedagog maqomini mustahkamlash borasida izchil ishlar boshlandi, ta’lim muassasalari qurilib, modernizatsiya qilindi. Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari paydo bo‘ldi. Oliy ta’lim olish imkoniyatlari kengaydi, xususiy sektor jadal rivojlana boshladi. So‘nggi o‘n yilda mamlakatda 1,8 million o‘rinli bog‘chalar va 1,5 mln. o‘quvchi tahsil oladigan maktablar barpo etildi, 10 mingdan ortiq ta’lim muassasalari zamonaviy qiyofaga ega bo‘ldi. Oliy o‘quv yurtlari soni 77 tadan 205 taga, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi esa 45 foizga yetdi.

2026-yilda o‘zbekistonlik yoshlar nufuzli xalqaro olimpiadalarda 228 ta medalni qo‘lga kiritdi. Maktab davridayoq xorijiy tillar va fanlar bo‘yicha sertifikat olgan o‘quvchilar soni 100 ming nafarga yetdi. Maktab bitiruvchilarining qariyb 5 mingi oliy o‘quv yurtlariga kirishda eng yuqori ballni to‘pladi. “PISA” tadqiqotlarida 15 yoshli o‘zbekistonlik o‘quvchilar tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha 32 pog‘ona yuqorilab, 48-o‘rinni egalladi.

Bunday ko‘rsatkichlar va yutuqlar ortida bir necha yil oldin birinchi sinfga kelgan bolalar turibdi. Ularga yo‘l ko‘rsatgan va bilim olishga ruhlantirgan o‘qituvchilarning ham maqomi o‘zgarmoqda. Besh yil ichida xalqaro va milliy sertifikatlarga ega pedagoglar soni 29 mingdan 143 mingga yetdi. Maktablarda pedagogik kadrlar yetishmovchiligi uch barobar kamaydi. Bugun 40 ming o‘qituvchi 1 ming dollar miqdorida, yana 1,5 ming pedagog esa 2 ming dollardan ortiq maosh olmoqda. Albatta, moddiy tomon kasb nufuzining yagona mezoni bo‘la olmaydi. Bu kasb bilim, professionalizm, o‘z ustida doimiy ishlash va bola bilan muloqot o‘rnatish ko‘nikmasini talab qiladi. Biroq jamiyat bunday mashaqqatli mehnat munosib baholanishini kutishga haqli.

Prezidentimiz o‘qituvchi va murabbiylarni kasb bayrami bilan qutlar ekan, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda ularning alohida o‘rni borligini ta’kidladi. Bilim, ma’rifat, tarbiya va madaniyat Yangi O‘zbekiston salohiyatini oshirish va kuch-qudratining eng muhim manbalaridan biri ekani qayd etildi. Bir necha yil oldin bu umumiy gapdek eshitilishi mumkin edi. Bugun esa uning ortida bir qator aniq qarorlar, qadamlar turibdi. Ta’lim mazmuni yangilanayotganda darsliklar va dasturlar o‘zgarmoqda, o‘qitish metodikalari takomillashmoqda, bilimlarni baholash tizimi qayta ko‘rib chiqilmoqda. Ushbu ishlar doirasida 110 ming nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi malaka oshirdi. Singapurlik hamkorlar bilan birgalikda 121 master-trener va 739 murabbiy-o‘qituvchi tayyorlandi, ular keyinchalik 90 ming pedagogni o‘qitdi.

Juda katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Biroq bugun davlat ta’lim tizimi oldiga zamon ruhiga mos boshqacha savollarni qo‘ymoqda. Maktab qurish, uni jihozlash va o‘quvchini partaga o‘tqazishning o‘zi yetarlimi? Albatta, yo‘q. Endilikda ta’lim sifati, o‘qitish mazmuni va bitiruvchining olgan bilimlarini real hayotda qo‘llay olish qobiliyati eng asosiy masalaga aylanayotgani yaqqol ko‘rinib turibdi.

Yaqinda e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni islohotlarning hozirgi bosqichini yangi darajaga ko‘taradi. Hujjat bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yagona – Ta’lim va ilm-fan vazirligi etib qayta tashkil etildi. Binobarin, maktabgacha ta’lim, maktab, kasbiy ta’lim, oliy maktab va ilm-fan yagona tizim sifatida qaralishi lozim. Bola ta’limning bir nechta bosqichlaridan o‘tadi va ularning har birida zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, bir darajadan ikkinchisiga o‘tish esa mantiqiy va izchil bo‘lishi shart. Yangi vazirlik ta’limning barcha darajalari faoliyatini tashkillashtirish, ta’lim faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash, akkreditatsiya va litsenziyalashni amalga oshirish uchun javobgar bo‘ladi.

Shu bilan birga, Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi tashkil etilmoqda. U o‘quv dasturlari, darsliklar va metodik materiallarni ishlab chiquvchi, ularni amaliyotga joriy qiluvchi, natijalarni kuzatib



boruvchi va aniqlangan kamchiliklarni hisobga olgan holda tizimni takomillashtiruvchi o‘ziga xos laboratoriyaga aylanadi. Ta’lim sifatini tushunishda muhim burilish sodir bo‘layotgani haqida gapirish mumkin. Maktabda darsliklar bor-yo‘qligi va dars o‘tilganini tekshirish oson. Biroq bola yakunda nimani o‘rganganini va bilimlarini darslikdan tashqarida qo‘llay olishi mumkinligini aniqlash ancha murakkab masala. O‘quv materiallarini yangilash aynan shunday natijalarga yo‘naltiriladi.

Farmonga izohda aytilganidek, 2027-yilgacha 1342 nomdagi darsliklar va o‘quv-metodik materiallarni tayyorlash rejalashtirilgan. Boshlang‘ich sinflar uchun darsliklar Finlyandiya ta’lim alyansi tomonidan sertifikatdan o‘tkazildi, 5 – 7-sinflar uchun matematika, fizika, kimyo va biologiya bo‘yicha o‘quv materiallari esa Singapur darsliklari asosida ishlab chiqildi. Ularda tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ko‘proq. Kasbga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 300 dan ortiq mavzular ekologik bilimdonlikka bag‘ishlangan, moliyaviy va raqamli savodxonlik elementlari kiritilmoqda. Zamonaviy maktabda bolaga ma’lum hajmdagi ma’lumotni berishning o‘zi yetarli emas. Uni axborot bilan ishlashga, xulosa chiqarishga, qaror qabul qilish va ular uchun javobgar bo‘lishga o‘rgatish kerak. Bu o‘rinda yana o‘qituvchi birinchi o‘ringa chiqadi. Sun’iy intellekt tezda javob topadi, hisob-kitob qiladi yoki tezis shakllantiradi. Biroq tarbiya, insoniy mehr, bolani tushunish, unga qiyin pallada ko‘mak berish va unda bilimga qiziqishni uyg‘otish shunday bir jarayonki, u yerda sun’iy miya hech qachon pedagogning o‘rnini bosolmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: hech bir texnologiya bolaning qalbiga ustoz kabi yo‘l topa olmaydi.

Islohotlar natijaga aylanmoqda

Keng ko‘lamli o‘zgarishlar kasbiy ta’lim va oliy o‘quv yurtlarida ham davom etmoqda.

Yaxshi ta’lim insonni mustaqil kasbiy hayotga tayyorlashi kerak. Iqtisodiyot uchun esa yosh mutaxassis korxonaga nafaqat diplom, balki haqiqiy ish jarayonini anglagan holda kelishi, ayniqsa, muhim.

Ana shu ehtiyojlar dual ta’limni rivojlantirishga qaratilgan siyosatga asos bo‘lmoqda. Uch oy avval O‘zbekistonning o‘n nafar rektori tegishli tajribani o‘rganish uchun Germaniyaga yuborildi. U yerda bitiruvchilarning 70 – 75 foizi diplom olganidan so‘ng o‘qish davrida amaliyot o‘tagan korxonalarida ishlashni davom ettiradi.

O‘zbekiston uchun bunday model alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Andijon viloyatining o‘zidayoq 11 ming talaba 2 mingta korxonada amaliyot o‘tamoqda. Uchinchi va to‘rtinchi kurs talabalarining kamida 80 foizini – 185 ming nafar yoshni dual ta’lim bilan qamrab olish maqsad qilingan. 2027/2028 o‘quv yilida bu ishga 75 ta oliy o‘quv muassasasi va 3,5 mingta korxonani jalb etish rejalashtirilmoqda.

Yangi model bo‘yicha korxona, universitet va talaba o‘rtasida shartnoma tuziladi, ta’lim dasturi ish beruvchining ehtiyojlarini hisobga oladi, ish joyida esa yosh mutaxassisga malakali ustoz-murabbiy biriktiriladi. Bunday model barcha uchun manfaatli. Korxona uchun bu kerakli mutaxassisni oldindan tayyorlash, talaba uchun hali o‘qish davridayoq kasbiy ko‘nikmalarni egallash imkoniyatidir. Universitetga esa iqtisodiyotda nima sodir bo‘layotgani va qanday malakaga ega kadrga haqiqatan ham talab yuqori ekanini yaqqol anglash fursatini beradi.

Davlat, o‘z navbatida, kadrlar tayyorlash jarayonida korxonalar ishtirokini kengaytirishdan manfaatdor. Bunday yondashuv, ayniqsa, muhandislik, ishlab chiqarish, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalari uchun muhim. Zero, diplom bilan haqiqiy malaka o‘rtasidagi tafovut bu sohalarda imkon qadar kichik bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga, O‘zbekiston xalqaro ta’lim tizimlarining yurtimizdagi ishtirokini kengaytirmoqda. Mamlakatimizga dunyoning 300 ta yetakchi universitetini jalb etish vazifasi qo‘yilgan. Bunda muhandislik, qishloq va suv xo‘jaligi, energetika, sun’iy intellekt hamda tibbiyot yo‘nalishlariga ustuvor ahamiyat beriladi.

Milliy oliy ta’lim tizimiga dunyodagi eng kuchli amaliyotlar bilan o‘zini solishtirish, talabaga esa turli ta’lim modellari orasidan tanlash imkoniyati yaratilmoqda. Bunga oliy o‘quv muassasalarining yanada mustaqil bo‘lishi ham xizmat qilishi kerak. Universitetlarning joriy faoliyatiga davlat aralashuvini sezilarli darajada qisqartirish, ularning mustaqilligini kengaytirish va xususiy sektor ishtirokini oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Ta’lim sifati ko‘proq raqobat muhiti va bozor talablari orqali belgilanadi. Bunday yondashuv ayrim savollarni keltirib chiqarishi mumkin. Axir, ta’lim jamiyat uchun katta ahamiyatga ega va davlat bu jarayondan butunlay chetga chiqib keta olmaydi. Biroq o‘zgarishlar bunday maqsadni nazarda tutmayapti. Davlat umumiy qoidalarni belgilash, sifatni nazorat qilish, litsenziyalash va akkreditatsiyadan o‘tkazish, ta’limning ommabopligi va hamma uchun ochiqligini ta’minlash, strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlash vazifalarini saqlab qoladi. Ayni paytda universitetlarga qaror qabul qilishda ko‘proq erkinlik beriladi va natija uchun mas’uliyat ham oshadi.

Jahon amaliyotida bunday yondashuv keng tarqalgan. Rivojlangan ta’lim tizimlarida davlat universitetlar hayotining har bir tafsilotini boshqarishga urinishlardan asta-sekin voz kechib, strategik tartibga solish va sifat nazoratini o‘z zimmasida saqlab qolgan. Oliy o‘quv muassasalariga ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, resurslarni boshqarish va rivojlanish yo‘nalishlarini tanlashda ko‘proq mustaqillik berilgan. Shu bilan birga, ular bitiruvchilarni tayyorlash sifati va ularga mehnat bozoridagi talab darajasi bo‘yicha ancha qat’iy baholana boshlangan.

Bu borada Buyuk Britaniya tajribasi, ayniqsa, ibratli. U yerda universitetlar mustaqilligining kengaytirilishi sifatni baholash, natijalar shaffofligini ta’minlash hamda oliy ta’lim muassasalarining talabalar va jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshirish mexanizmlarini yaratish bilan birga olib borildi. Albatta, har bir mamlakatning o‘z ta’lim tizimi, iqtisodiyoti va an’analari bor. Biroq ta’lim tizimi qanchalik yetuklashib borgan sari uning har bir tafsilotini boshqarishga ehtiyoj shunchalik kamayib, yakuniy natija uchun mas’uliyatning ahamiyati shunchalik ortib borishiga asoslangan yondashuv alohida e’tiborga loyiq.

Agar universitet har qanday jiddiy tashabbusni yillar davomida kelishishga to‘g‘ri kelishini bilsa, u muqarrar ravishda o‘z sur’atini yo‘qotadi. Zamonaviy ta’lim dasturlarini mustaqil ravishda ochish, kuchli mutaxassislarni taklif etish, korxonalar va xorijiy universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish huquqiga ega universitet esa iqtisodiyot ehtiyojlariga tezroq javob berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqobat tamoyili yanada kuchaytiriladi. Bunda talaba universitetni tanlaydi, universitet esa o‘z faoliyati sifatini isbotlashi kerak bo‘ladi.

Shu ma’noda, ta’lim tizimini qayta qurish keng islohotlar mantig‘ining bir qismi hisoblanadi. Davlat tobora ko‘proq qarorlarni ular uchun mas’uliyatni bevosita o‘z zimmasiga oladigan joyning o‘zida qabul qilish uchun sharoitlarni yaratishga intilib bormoqda. Agar bugun maktab bolaga mustaqillikni o‘rgatayotgan bo‘lsa, universitetda bitiruvchi uchun ko‘proq erkinlik va mas’uliyat berilsa, bu jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi mutlaqo tabiiydir.

Ta’lim va yoshlarni tayyorlash borasidagi o‘zgarishlar mamlakat tashqarisida ham yangi avlodni shakllantirishning kengroq jarayonining bir qismi sifatida baholanayotgani e’tiborli. Ispaniyaning “El Mundo Financiero” nashrida bu jarayon “Mustaqillik avlodi” deb atalib, uni mustaqil O‘zbekiston bilan tengdosh bo‘lgan va mamlakatda raqamlashtirish, IT sohasi hamda yangi iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanayotgan avlod sifatida ta’riflanadi. Nashr bahosiga ko‘ra, aynan yosh o‘zbekistonliklar mamlakatning an’anaviy madaniy kodini global texnologiyalar, tadbirkorlik va kreativ industriyalar bilan uyg‘unlashtirmoqda.

Ayni nuqtayi nazar ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlarni anglash uchun muhim. Bu tizim ochiq, raqamli va raqobatbardosh iqtisodiyotda mehnat qila oladigan avlodni tayyorlashi kerak. Mamlakatning ochiqligi, texnologiyalarning rivojlanishi va yoshlar uchun imkoniyatlarning kengayishi bu avlod uchun tabiiy muhitning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekistonda islohotlar ko‘lami shu qadar kengki, hatto voqealarni diqqat bilan kuzatib borayotgan odamga ham butun manzarani birdaniga qamrab olish qiyin – ulkan bunyodkorlik jarayonlarining nihoyatda ko‘p qismi bir vaqtning o‘zida kechmoqda. Maktab, universitetlar va mehnat bozori o‘zgarmoqda. Xalqaro aloqalar kengaymoqda, sport rivojlanmoqda. Mamlakatga xorijiy universitetlar va yangi ta’lim dasturlari kirib kelmoqda. Tobora ko‘proq yoshlar xalqaro musobaqalarda o‘z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Bugungi demografik holatni hisobga olganda, ko‘p sonli yosh aholi mamlakat uchun ulkan ustunlikka aylanishi mumkin. Ayniqsa, ularga sifatli ta’lim olish, ishlash, rivojlanish va o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyati yaratilsa, bu salohiyat yanada katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda barcha sa’y-harakatlar aynan shu maqsadga qaratilgan. Yaqin vaqtlarga qadar mamlakatimizni ko‘pchilik, avvalo, Markaziy Osiyoning boy tarix, madaniyat va katta tabiiy resurslarga ega yirik davlati sifatida tasavvur qilar edi. Endi bu qiyofaga yana bir mazmun qo‘shilmoqda – Yangi O‘zbekiston bilim, inson kapitali, yosh avlodning qobiliyatlari va raqobat muhitini bosqichma-bosqich shakllantirishga tayanayotgan davlat sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Shubha yo‘qki, Devid Xauellning Nodirbek haqida aytgan so‘zlari vaqt o‘tishi bilan mutlaqo boshqacha ma’no kasb etadi – o‘zbek ismlari mamlakatimiz chegaralaridan ancha uzoqlarda ham mashhur bo‘lib boradi. Va har safar shunday ismni eshitgan odamlar hayrat va havas bilan o‘zbek yoshlariga buyuk cho‘qqilar sari yo‘l ochib bergan O‘zbekiston haqida yanada ko‘proq tasavvurga ega bo‘lishga intiladi.

So‘z aytgum xayrli saodatingga,
Salohiyat, bilim, qanoatingga,
Olam lolu hayron shijoatingga,
Senga jo‘r bo‘lgusi baxtiyor hayot,
Olg‘a yur, to‘xtma, muzaffar avlod!

Bilaman, necha ming zahmatlaring bor,
Mehnatingga arzir rag‘batlaring bor,
Muhimi, ulug‘vor maqsadlaring bor,
So‘nmas orzularing bag‘ishlar qanot,
Olg‘a yur, to‘xtama, muzaffar avlod!

Kim bunda mudraydi g‘aflat, g‘am bosib,
Yasha quvonch bilan, baxtda dil yozib,
Vorisi bo‘l ajdodlarning munosib,
Uyg‘on endi sen ham va albat uyg‘ot,
Olg‘a yur, to‘xtama, muzaffar avlod!

Yurtboshing qo‘llovi – chin ishonch yo‘li,
Baland bo‘lar doim millatning qo‘li,
Yuksal Yangi O‘zbekiston misoli,
Sendadir kelajak, sendadir najot,
Olg‘a yur, to‘xtama, muzaffar avlod!

O‘tkir RAHMAT.

Keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida izlanuvchan olimlarimiz tomonidan g‘o‘zaning 300 ga yaqin ertapishar navlari yaratildi.

Xalq so‘zi
www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz
2026-yil 8-oktyabr

GLOBAL MUAMMOLAR YECHIMIDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanib, atroflicha o‘rganilmoqda

Poytaxtimiz Xalqaro paxta bo‘yicha maslahat qo‘mitasi (ICAC) hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda tashkil etilgan nufuzli tadbirlar – Xalqaro paxta kuni hamda Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlarga mezbonlik qilmoqda.

Forum

Dunyoning 30 dan ortiq davlatlaridan taniqli olim va ekspertlar, tadbirkorlar, shuningdek, ko‘plab xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etayotgan forumda O‘zbekiston tajribasini o‘rganish asnosida paxtachilikning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi roli muhokama qilinayotgani e’tiborga molik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqaro anjumanlar ishtirokchilariga tabrik yo‘lladi. Uni Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Qayd etilganidek, o‘zbek dehqonlari paxtachilik bo‘yicha ulkan tajribaga ega. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga gektaridan 100 sentnergacha paxta hosili olinmoqda.



Darhaqiqat, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi transformatsiya qilinib, sohani bozor tamoyillari asosida rivojlantirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. Natijada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini yuksaltirish barobarida qishloq aholisining daromadini ko‘tarishga erishilyapti. Xususan, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan innovatsion modellar anjumanga tashrif buyurgan xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari, ilmiy markazlar, xususiy sektor vakillarida katta qiziqish uyg‘otdi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti bosh direktori Syuy Dunyuy, Xalqaro paxta maslahat qo‘mitasi ijrochi direktori Erik B. Traxtenberg va boshqalar iqlim o‘zgarishi, suv resurslari cheklangan, ekologik talablar va iste’molchilarning mahsulot kelib chiqishiga bo‘lgan qiziqishi kuchayib borayotgan bir paytda O‘zbekistonning sohadagi yangicha yondashuvlari, ilgari surayotgan tashabbuslarini yuqori baholadi. Binobarin, bugun yurtimizda regenerativ qishloq xo‘jaligi, biochar texnologiyalari, karbon bozorlari, mahsulotlarni kuzatish tizimlari, mas’uliyatli ta’minot zanjirlari va iqlim moliyasi kabi tamoyillar paxta sanoatining uzoq istiqbolini belgilaydigan asosiy omillarga aylangan.

Kuni kecha davlatimiz rahbariga Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining oliy mukofoti – “Agricola” medali topshirilishi ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq va suv xo‘jaligini rivojlantirish yo‘nalishlarida erishilgan shu kabi yutuqlarning yuksak e’tirofi, desak, ayni haqiqat.

Anjumanda so‘zga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov mamlakatimiz paxtachilik tarmog‘ida xomashyo yetishtirishdan tortib uni chuqur qayta ishlash va global qiymat zanjirigacha bo‘lgan jarayonlarni to‘liq qamrab olgan yaxlit tizim yaratilganiga alohida to‘xtaldi. Endilikda qancha paxta yetishtirilgani emas, balki qancha qo‘shimcha qiymat yaratilgani, bunda barqaror ishlab chiqarishning roli hal qiluvchi mezonga aylanganini alohida ta’kidladi.

Shu jihatdan, tadbir doirasidagi majlislarda tarmoqning kelajagini belgilaydigan iqtisodiy, texnologik va ekologik omillarga bag‘ishlangan dolzarb mavzular muhokama qilinayotgani diqqatga sazovor.

Toshkent forumi “Dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan mamlakatlarda agrooziq-ovqat tizimlarini rivojlantirish orqali farovonlikni ta’minlash” mavzuiga bag‘ishlangan. Zero, oziq-ovqat xavfsizligi masalasi bir mamlakatning ichki vazifasi chegarasidan chiqib, allaqachon global muammoga aylangan. Uning yechimi esa transport, savdo, investitsiya, texnologiya, iqlim va xalqaro hamkorlik bilan chambarchas bog‘liq.

Forumda O‘zbekistonning oziq-ovqat mahsulotlari logistikasi va savdosining to‘liq erkinligi hamda oziq-ovqat yetkazishni tartibga soluvchi qoidalarni soddalashtirish tashabbusi ilgari surildi. Xalqaro mutaxassislar bu, ayniqsa, yuqori transport xarajatlari va tranzit mamlakatlardagi muammolarga to‘qnash keladigan dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun katta rag‘bat bo‘lishini e’tirof etdi. Bunday qiyinchilik va tizimli masalalar oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotgani bo‘yicha misollar ko‘p.

Dengiz yo‘llaridan olis bo‘lgan O‘zbekistonning ana shunday to‘siqlarni chuqur his qilayotgani va uning ta’sirlarini yumshatish, mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish, xalqaro bozorlarga chiqish borasidagi tajribasi boshqa mamlakatlar uchun qo‘l kelishi ta’kidlandi. Shu ma’noda, bu galgi forum O‘zbekiston uchun qo‘lga kiritgan yutuqlarni baham ko‘rish bilan birga boshqa davlatlar tajribasini o‘rganish, yangi hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish va umumiy muammolarga birgalikda yechim topish uchun qulay platformaga aylanmoqda.

Chindan ham, ikki kun davom etadigan anjuman dasturi g‘oyatda rang-barang bo‘lib, unda “Zaiflikdan barqarorlik sari” bosh g‘oyasi asosida dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlar oldidagi 2030-yilgacha bo‘lgan ustuvor vazifalarni belgilash, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari va savdoni kengaytirish, mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish singari ko‘plab dolzarb masalalar muhokamasi qamrab olingan.

Said RAHMON
(“Xalq so‘zi”).



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

SIFAT VA NATIJADORLIK – ASOSIY MEZON

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Qonun loyihalari muhokamasini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari” mavzuida seminar o‘tkazildi.

Unda Qonunchilik palatasida qonun loyihalarini muhokama qilish amaliyotini takomillashtirish, taqdim etiladigan ma’ruzalar mazmunini oshirish, mantiqli va konstruktiv muhokama muhitini rivojlantirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Seminarda qayd etilganidek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ilgari surilgan qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirish g‘oyasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim siyosiy va huquqiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari kelgusi o‘n yillikni milliy yuksalish davri sifatida belgilab, sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratdi. Shu jihatdan, parlamentda qonun loyihalarining puxta va mazmunli muhokama etilishi qabul qilinayotgan qonunlarning sifati va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bu bo‘yicha qilingan ma’ruzalarda qonun loyihalarini birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘qishlarda ko‘rib chiqishning tartib-taomillari, o‘ziga xos jihatlari, deputatlar takliflari asosida loyihalarni takomillashtirish, alohida normalarni puxta muhokamadan o‘tkazish va yakuniy tahrirni shakllantirish masalalariga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, xorijiy parlamentlarda qonun loyihalarini ko‘rib chiqishning ilg‘or amaliyoti, muhokamalarni tashkil etish usullari, ilmiy-nazariy asoslari hamda ularning milliy parlament amaliyotiga mos jihatlariga to‘xtalib o‘tildi.

Munozaralarga boy bo‘lgan seminarda qonun loyihalari yuzasidan taqdim etiladigan ma’ruzalarning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar ham ko‘rib chiqildi. Ma’ruza loyiha mazmunini shunchaki bayon qilish bilan cheklanmasdan, uning maqsadi, zarurati, taklif etilayotgan huquqiy yechimlar va kutilayotgan natijalar, ishchi guruhlari, fraksiyalar majlislarida ilgari surilgan takliflar hamda siyosiy pozitsiyalar haqida deputatlarga aniq va asoslangan ma’lumot berishi lozimligi ta’kidlandi.

Tadbir davomida har bir o‘qish bosqichida qonun loyihalarini muhokama qilishga doir zamonaviy yondashuvlar yuzasidan fikr almashildi, ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga javob berildi.

Seminar yakunlari bo‘yicha parlament muhokamalarining samaradorligi va sifatini yaxshilash hamda ilg‘or xorijiy tajribaning milliy amaliyotga mos jihatlarini joriy etish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi belgilandi.

BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi tomonidan sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish, xavfli ishlab chiqarish obyektlari hamda potensial xavfli inshootlarda avariya va baxtsiz hodisalarning oldini olish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu hujjat sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish, xavfli obyektlardagi faoliyat ustidan nazorat mexanizmini kuchaytirish, eng asosiysi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i hamda mol-mulkini ishonchli muhofaza qilishga qaratilgan.



Farhod ZAYNIYEV,
qo‘mita raisi o‘rinbosari:

– Sanoat xavfsizligi qoidalariga rioya etilmasligi avariyalar va insonlar jabrlanishiga sabab bo‘lmoqda. Amaldagi jazo choralari esa bunday holatlarning oldini olish uchun yetarli emas. Shu bois ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga xavfli va potensial xavfli obyektlarda sanoat xavfsizligi talablarini, xavfli yuklar bilan ishlash qoidalarini buzganlik, shuningdek, bila turib yolg‘on ekspert xulosasi berganlik uchun javobgarlik choralarini belgilashni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Muhokama jarayonida qonun loyihasining mazmun-mohiyati, ahamiyati va uni qabul qilish zarurati yuzasidan deputatlar tomonidan qator fikr-mulohazalar bildirildi. Loyihada nazarda tutilgan ayrim normalar bo‘yicha aniqlashtiruvchi savollar o‘rtaga tashlanib, ular yuzasidan tegishli tushuntirishlar berildi.

Ayni vaqtda qonun loyihasi bildirilgan taklif va mulohazalar asosida takomillashtirilib, siyosiy partiyalar fraksiyalari yig‘ilishlarida muhokama qilish hamda Qonunchilik palatasining yalpi majlisiga kiritish uchun tayyorlanmoqda.

INTELLEKTUAL MULK: HUQUQIY HIMOYA MEXANIZMLARI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi tomonidan intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.

Deputatlar, tegishli vazirlik va idoralar vakillari hamda huquqshunoslar ishtirokida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda qonun loyihasi atroflicha ko‘rib chiqildi. Shuningdek, unda nazarda tutilgan normalar chuqur tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirish yuzasidan qator taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Ta’kidlanganidek, amaldagi tartibga ko‘ra xizmat asarlariga bo‘lgan mulkiy huquqlar asar oshkor etilganidan keyin, shartnoma talablaridan qat’i nazar, 10 yil o‘tgach avtomatik tarzda muallifga qaytishi belgilangan. Intellektual mulk obyektlari bo‘yicha ham davlat ekspertizasi qarorlaridan norozi bo‘lgan shaxslarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga murojaat qilish imkoniyati mavjud emas.

Mazkur qonun loyihasi bilan xizmat asarlariga oid mulkiy huquqlarning asar oshkor etilganidan keyin 10 yil o‘tgach avtomatik tarzda muallifga o‘tishiga oid normani bekor qilish va mazkur munosabatlarni tomonlarning kelishuvi asosida tartibga solish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, intellektual mulk obyektlari bo‘yicha davlat ekspertizasi qarorlaridan norozi bo‘lgan shaxslarga bevosita sudga murojaat etish huquqini berish belgilanyapti. Bu esa intellektual mulk bo‘yicha shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Behzod TO‘XTAMURODOV,
qo‘mita a’zosi:



– Qonun loyihasida patentlarni o‘z kuchida saqlash uchun davlat bojlarini oldindan 5 yillik davr uchun to‘lash imkoniyatini berish ham ko‘zda tutilmoqda. Bu esa patent egalari uchun qulaylik yaratish, davlat bojlarini to‘lash jarayonini soddalashtirishga imkon tug‘diradi. Qonun loyihasining qabul qilinishi esa intellektual mulk obyektlarini muhofaza etish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlar uchun bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda deputatlar tomonidan qonun loyihasini yanada takomillashtirish, uni pishiq-puxta holatga keltirish bo‘yicha ko‘plab taklif va tavsiyalar berildi. Asosli deb topilgan takliflar hujjat matnini maromiga yetkazish jarayonida e’tiborga olinadigan bo‘ldi.

“Xalq so‘zi”.

NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGI

Mehnat bozoridagi bugungi o‘zgarishlar oliy ta’lim tizimi oldiga bitiruvchilarni tayyorlash mazmuni hamda yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish vazifasini qo‘ymoqda. Shu bois ta’limni mehnat bozori ehtiyojlari va ishlab chiqarish amaliyoti bilan yaqinlashtirish, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Fikr

Prezidentimizning “Oliy ta’limda dual ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi bilan ahamiyatli. Mazkur hujjat orqali oliy o‘quv muassasalarida ish beruvchi korxonalar buyurtmasi asosida, bitiruvchini keyinchalik ishga qabul qilish sharti bilan dual ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash tizimi joriy etilyapti.

Xo‘sh, bu nima beradi? Avvalo, “korxona – oliygoh – maqsadli kadr” tamoyilini amaliyotga keng tatbiq qilish imkonini yaratadi. Ya’ni talaba faqat auditoriyada nazariy bilim olibgina qolmay, o‘zi kelajakda ishlaydigan korxonada amaliy tajriba orttiradi. Ish beruvchi esa o‘z ehtiyojiga mos mutaxassisni tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etadi. Natijada ta’lim bilan mehnat bozori o‘rtasidagi



uzviy bog‘liqlik yanada mustahkamlanadi.

Yangi tizimning yana bir muhim jihati – talaba va ish beruvchi o‘rtasidagi munosabatlarning aniq shartlar asosida belgilanishi. Dual ta’lim doirasida korxona talabaga o‘qish davrida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan past bo‘lmagan darajada oylik ish haqi to‘laydi. Talaba esa oliygohni tamomlagandan so‘ng kamida ikki yil mazkur korxonada ishlab berish majburiyatini oladi. Bu mexanizm yosh mutaxassisning ta’limdan mehnat faoliyatiga o‘tishini yengillashtirish bilan birga, uning birinchi ish joyiga ega bo‘lishini kafolatlashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, muhandislik, ishlab chiqarish hamda ishlov berish, arxitektura va qurilish, qishloq xo‘jaligi kabi iqtisodiyot uchun muhim yo‘nalishlarda tahsil olayotgan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar e’tiborga molik. Ijtimoiy reestrga kiritilgan talabalarga ijtimoiy stipendiya to‘lanishi, ayrim bilim maskanlarida dual ta’limni ikkinchi kursdan davlat granti kvotalari doirasida davom ettirish imkoniyatining yaratilishi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan ham muhim qadamdir.

Shuningdek, talabaning dual ta’limda tahsil olgan davri umumiy mehnat stajiga hisoblanishi uning kelgusi faoliyati uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. 2027-yildan korxonalarda talabalarga biriktiriladigan murabbiylarni maxsus kurslarda tayyorlash tizimining yo‘lga qo‘yilishi esa ta’limning amaliy qismini yanada sifatli tashkil etishga turtki beradi.

Mazkur tizimning eng muhim jihati – o‘qishni tugatgandan keyin ish qidirish emas, aksincha, o‘qish jarayonida kelajakdagi ish joyiga tayyorlanish tamoyilini shakllantirish. Bu yoshlar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, korxonalarni malakali kadrlar bilan ta’minlash hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakatning taraqqiyoti, avvalo, inson kapitaliga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Zero, korxonalarga zamonaviy texnologiyalarni biladigan, amaliyotni tushunadigan va o‘z kasbi bo‘yicha yetarli ko‘nikmaga ega mutaxassislar kerak. Bunday kadrlarni tayyorlash esa oliy ta’lim muassasasi va ish beruvchi o‘rtasidagi hamkorlikni yangi darajaga olib chiqishni talab etadi.

Dual ta’lim tizimini kengaytirish ta’lim sohasi bilan birga iqtisodiyot raqobatbardoshligini ham oshiradi. Bu jarayonda korxonalarning mas’uliyati ham yuqori bo‘ladi. Ular talabaga faqat ish joyi emas, balki zamonaviy ish muhiti, tajribali mutaxassislardan bilim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatini ham yaratishi zarur.

Mavluda IBRAGIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

O‘zbekiston – Rossiya:

HUDUDLARARO SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH YO‘LIDA

Farg‘onada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston – Rossiya Hududlar kengashining III yalpi majlisida ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalar va sanoat kooperatsiyasini yanada kengaytirish, investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish hamda istiqbolli qo‘shma loyihalarni hayotga tatbiq etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Hamkorlik

Rossiyaning 17 ta hududi rahbarlari va vakillari, mamlakatimizning barcha hududi mas’ullari hamda ikki mamlakatdan 400 ga yaqin biznesmenlar qatnashgan ushbu tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning qutlov so‘zlari o‘qib eshittirildi. O‘zbekiston tomonidan qutlovni Bosh vazir o‘rinbosari Jamshid Xo‘jayev, Rossiya tomonidan esa Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o‘rinbosari Denis Manturov yetkazdi.

Uchrashuvning amaliy natijasi sifatida to‘rtta bitim imzolandi. Hujjatlar Farg‘ona hamda Omsk viloyatlari, Surxondaryo viloyati va Krasnoyarsk o‘lkasi, Namangan viloyati hamda Dog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlikni qamrab oldi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda “Wildberries” kompaniyasi o‘rtasida “A” toifasidagi logistika majmuasini qurish bo‘yicha investitsiya bitimi imzolandi.

O‘zbekiston va Rossiya Hududlar kengashining navbatdagi yig‘ilishi Rossiyaning Omsk shahrida o‘tkaziladi.

“Xalq so‘zi”.

13-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligida “Women in Tech Leadership Forum Uzbekistan – 2026” xalqaro forumi o‘tkaziladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 01.53 Topshirildi – 02.20 1 2 3 4 5 6